

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

2022 y. «17» 11

144-7-105-O`X/2022-
son

sh.

OOO PARLAMENT , keyingi o`rinlarda "Xizmat kursatuvchi" deb yuritiladi. O`zining nizomi, asosida ish yurituvchi M.Raxmatov nomidan, bir tomondan va Urgut ixtisoslashgan davlat urion xujaligi , keyingi o`rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi. O`zining nizomi, asosida ish yurituvchi raxbar Z.Shodiyev nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar

1 SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Xizmat kursatuvchi o`ziga tegishli bo`lgan tovar(mahsulot)ni ushbu spesifikasiyaga asosan Buyurtmachiga o`z vaqtida sifatli qilib yetkazib berish, Buyurtmachi esa tovar(mahsulot)ni kabul kilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to`lash majburiyatini oladi.

№	Maxsulot nomi	O`lchov birligi	Miqdori donada	Birlik narhi sumda	Jami narhi
1	Tut ko`chati	dona	10000	1980	19800000
	Jami				19800000

1.2. Shartnomaning umumiy summasi QQS siz 19 800 000 (Un tukkiz million sakkiz yuz ming) so`mni tashqil qiladi.

2.YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani Payarik tuman bo`yicha G`aznachilik bo`linmasida ro`yxatga olingan kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida qonunchilikkauz muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 30 % miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to`lash majburiyatini oladi, qolgan 70 % ni tovarni olgandan so`ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to`laydi.

2.2. "Xizmat kursatuvchi" avans mablag`lari Xizmat kursatuvchining tegishli hisobvarag`iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 10 bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Xizmat kursatuvchi" amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "Xizmat kursatuvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to`liqligini va sifatini shartnomaning 1.1-bandida ko`rsatilgan tovarlarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa hollar ko`zda tutilmagan bo`lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo`yicha barcha xarajatlar Xizmat kursatuvchi xisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Buyurtmachining roziligiga ko`ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita Buyurtmachining mas`ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo`yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko`rsatiladi.

2.8. Mazkur shartnomada ko`zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Buyurtmachining huquqlari:

Xizmat kursatuvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo`lgan davlat standartlari va boshqa me`yoriy hujjatlar bilan ta`minlashni talab qilish;

Buyurtmachi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, Xizmat kursatuvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur shartnomaning shartlaridja boshqa hollar belgilanmagan bo`lsa;

Xizmat kursatuvchidan mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo`yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o`z ixtiyoriga ko`ra quyidagilardan birini talab qilish:
tegishli sifatdagi shunga o`xshash tovar bilan almashtirib berish;

kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish;

Xizmat kursatuvchidan mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

mazkur shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;
tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to'lash.

3.3. Xizmat kursatuvchi quyidagi xuquqlarga ega:

"Buyurtmachidan" oldindan to'lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

Buyurtmachidan shartnomaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida

yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

3.4. Xizmat kursatuvchining majburiyatlari:

- Buyurtmachiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;

- agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida Xizmat kursatuvchi shartnoma shartlari va me'yorlardan yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'l qo'ygan hollarda Buyurtmachining talabi bo'yicha 15 - kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda mazkur shartnoma shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Tovarlar tanlab olmaslik, shuningdek Xizmat kursatuvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi Xizmat kursatuvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, xizmat kursatuvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.2. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi mahsulot Xizmat kursatuvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi Xizmat kursatuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.3. Xizmat kursatuvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha Xizmat kursatuvchi shartnoma shartlarining buyurtmachi nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- shartnoma shartlarining boshqa buzilishlari;

- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, Xizmat kursatuvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima Xizmat kursatuvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.5. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar Xizmat kursatuvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat

bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib

berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.6. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun Xizmat kursatuvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlarni qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan

tashqari, o'z kuchi bilan, lekin Xizmat kursatuvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi Xizmat kursatuvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

5. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

5.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

5.2. "Sotib oluvchi" "Sotuvchi"ga mazkur shartnoma doirasida qo'yidagilarni kafolatlaydi va qo'yidagi majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Sotuvchi"ning korrupsiya qarshi amaldagi talablariga va O'zbekistan Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat'iy rioya qiladi.

6. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil

sifatida harakat qilib, "so'uvchi"ning korrupsiya qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat'iy rioya qiladi.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI


9.1. Mazkur shartnoma Urgut tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'mirlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

9.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

10. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Ijrochi	Buyrutmachi
OOO PARLAMENT (mol Xizmat kursatuvchining nomi) Manzil: Payarik tumani Tel: h/v: 20208000005240048001 Bank nomi: "ATB Turon bank" MFO: 00446 STIR: 307487274 OKONX: Rahbar (imzo) M.O.	Urgut ixtisoslashgan davlat urmon xujaligi (byudjetdan mablag' oluvchining nomi) Manzil: Urgut tumani, Henli Kenagaz MFY Tel/faks 93-969 07-15 shifri 400121860182367042203142001 byudjetdan mablag' oluvchi STIR: 308421858 OKONX: 22100 G'aznachilik nomi: Meliya vazirligi G'aznachiligi G'azna h/v: 23402000300100001010 Bankning nomi: Mar.bank Toshkent sh. Bosh boshkarmasi XKKM MFO: 00014 g'aznachilik STIR: 201122910 Z. Shodiyev



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

CS0127501025

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **OLDI-SOTDI ShARTNOMASI**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: "URGUT IXTISOSLASHGAN DAVLAT O'RMON XO'JALIGI" DAVLAT MUASSASASI tomonidan 15.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Urgut tuman yuridik
markazi
markaz rahbari:**



M.M.JUMANOV

17.11.2022

JT50117312